

“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN ETNOGRAFIK BIRLIKLAR

Mamaziyoyeva Ozoda Botirali qizi

University of Business and Science

Til va adabiyot ta’limi kafedrası o o’qituvchisi

e-mail: omamaziyoyeva@gmail.com

Tel: +998 77 302 15 16

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15640749>

Annotatsiya: mazkur maqola Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida qo‘llangan o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan etnografik va frazeologik birliklar hamda ularning xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan. Xususan, to‘y, mavsum-marosim odatlari va asarning badiiy tili etnografik, frazeologik jihatdan yondashilib baholangan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar tili, muallif tili, hikoyachi tili, qahramon tili, etnografik birlik, frazeologik birlik, Tog‘ay Murod, obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy unsur.

Adabiyot – millat ko‘zgusi.” Darhaqiqat, adabiyot mohiyatan umuminsoniyat masalalariga dahldor bo‘lsa-da, biroq u har qanday holatda milliy shaklda namoyon bo‘ladi. Adabiyotning xoh nasrida, xoh nazmida bo‘lsin va xoh xalq og‘zaki ijod namunalarida bo‘lsin shu xalqning urf-odatlar, an‘analari, ming yillar davomida shakllanib, avlodlar hayotida chuqur tomir otib borayotgan qadriyatlarni asosiy mezon va mavzusiga aylantirib olgan bo‘ladi, shuning uchun ham ularda milliy ruh bo‘y-basti bilan aks etadi.

Milliy adabiyotimizning XX asr oxirgi choragi rivojida Tog‘ay Murodning munosib o‘rni bor. U salkam o‘ttiz yillik ijodiy faoliyati davomida bir necha hikoya, to‘rt qissa, ikki roman yaratdi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi, adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Yozuvchi qoldirgan adabiy meros miqdor jihatdan u qadar ko‘p emas. Ammo uning qissa va romanlari o‘ziga xos badiiyati, tili va ifoda tarzi, hech qaysi adibnikiga o‘xshamaydigan murakkab personajlari bilan davr adabiyotida yorqin iz qoldira olgan. Tog‘ay Murod o‘z asarlaridagi milliy ruhning bir-biridan betakror ifodasi bilan o‘zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo‘shish bilan bir qatorda o‘zbekni o‘ziga tanitdi, o‘zligini anglatdi, qaysidir ma’noda dunyo xalqlari orasida munosib o‘ringa olib chiqdi. Yozuvchi ijodida Alpomish-u Barchinlar, Layli-yu Majnunlar yangicha talqin va ma’no kasb etdi, xalqimizga xos kamtarlik, mehnatsevarlik, tantilik, soddalik, oilaparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar Tog‘ay Murod qalamida o‘zgacha ko‘rinish kasb etdi. Fikrimizning yaqqol isboti sifatida “Ot kishnagan oqshom”, “Otamdan qolgan dalalar”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, “Oydinda yurgan odamlar” singari asarlari orqali adabiyotimizga Surxon vodiysining o‘ziga xos nafasini olib kirdi, mehnatsevar, kamtar va tanti dehqonlar, chorvadorlar, bog‘bonlarga nisbatan dilimizda iliq va samimiy mehr uyg‘otdi, voha yigitlariga xos g‘ururlilik, or-nomusni jonidan ustun qo‘yish, dovyuraklik, mardlik, sadoqat kuylanadi. «Oydinda yurgan odamlar» qissasi Tog‘ay Murodninggina emas, o‘zbek milliy adabiyotining noyob namunasi sifatida kutib olindi. Qissa qahramonlari Qoplon va Oymomo farzand orzu ilinjida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab yashashadi. Hali tug‘ilmagan go‘dakning birisi bobosi, biri momosi bo‘lib, zurriyotni, bir-birlarini e‘zozlashadi, ardoqlashadi. Asar qahramonlari fojiasi umid va yorug‘likka to‘la mungli, xazin bir qo‘shiq sifatida kitobxon ko‘nglini larzaga soladi, xotirasida manguga qoladi. Ushbu qissa adibning ijodiy izlanishlari umuman boshqa yo‘nalishdan borganligi bilan alohida e‘tibor va e‘trofga sazovordir. Asar

1980-yilda yozilgan bo'lib, adabiyotimizda keng muhokama va munozaralarga sabab bo'ldi. Chunonchi, adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov yozganidek "...uni yozuvchi sifatida taniganimga ancha bo'ldi. "Oydinda yurgan odamlar" qissasini o'qiganimda bir olam taassurot ichida qolganimni eslayman: mazza qilib o'qiganim rost-u, bironvga aytib bergudek voqeasi yo'qdek edi-da!... Qahramonlari ham binoyidek-u, insho yozganingda "falonchiga o'xshagim keladi" deydi emas-da!..." Chindan ham asarni o'qish davomida Qoplombekning Oymomoga ko'ngil qo'yishi, ikki qalbning tunganmas va pok muhabbatiga farzandsizlik musibati to'siq bo'lishi, biroq shunday bo'lsa-da umr bo'yi bu dardga davo izlashlari, ba'zi Qimmat momoga o'xshagan "aqlilar"ning ta'na-malomatlariga chidashi, el orasida o'ksik va tili qisq bo'lib yurishi, shunday bo'lsa-da katta umid bilan yashashi kitobxonni o'yg'a toldiradi, bevosita yuqorida adabiyotshunosimiz fikrlariga qo'shilgandek bo'lamiz. Lekin aytib o'tganimizdek, bu asar haqida juda ko'p mulohazalar bildirilgan. Xususan, Odi Yoqubovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz maqsadga muvofiq: "Tog'ay Murodning birgina "Oydinda yurgan odamlar" qissasida, yanglishmasam, adibga xos fazilatlar yanada yaqqolroq seziladi. Asar nima haqida? Bir qarashda qissa adabiyotimizda ko'p aytilgan farzandsizlik muammosiga bag'ishlangandek tuyiladi. Aslida, uslub jihatdan xalq dostonlariga o'xshab ketadigan bu qissani muhabbat haqidagi bir kuy, to'g'rirog'i, muhabbatga suyanib, barcha hayot dovullarini yengib o'tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo'shiq desak yarashadi. Yaxshi qo'shiq mungli bo'ladi, biroq bu mung ko'ngilga g'ashlik solmaydi, bil'aks, suv ichganday ravshan qiladi." Chindan ham Qoplombek va Oymomoning sevgi, ishonchga burkangan, samimiylikka yo'g'rilgan, sadoqatga limmo-lim to'lgan go'zal umrlarini ko'rib, bugungi kunda bir yostiqqa bosh qo'yib, farzand ko'rib, biroq bir-birining yuragini tinglolmaydigan, tushuna olmaydigan va oxir-oqibatda oila atalmish muqaddas qo'rg'onni buzadigan, begunoh bolalarni, murg'ak qo'ra ko'zlarni yetim qiladigan juftliklarni ko'rib, asardagi qahramonlarga qaysidir ma'noda havas ham qilamiz. Asarning rostan ham "Muhabbat qo'shig'i", "Muhabbat qissasi" ekanligiga amin bo'lamiz. Ular haqida to'lib-toshib gapirgimiz keladi.

Biroq hozir asardagi sevgi-muhabbat, nebkin tuyg'ularni emas, balki ularni shunday samimiy, sof va tunganmas qilib kitobxonga yetkazishda muhim ahamiyatga ega o'zbek xalqiga xos bo'lgan umummilliy qarashlar haqida fikr yuritmoqchimiz. Chunki bu kabi qarashlarning kiritilishi bilan, avvalo, asarning chin ma'noda xalqimiz qalbidan joy olishiga, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallashiga, pok muhabbat aynan shu milliyligimiz orqali go'zal tus olishiga erishilgan desa, yanglishmagan bo'lamiz. Asarda keltirilgan urf-odat, an'analar bilan birga milliyligimiz ramzi bo'lgan liboslar, o'zaro katta-kichik orasidagi munosabatlar, etika qoidalari o'quvchini faxr hissiga to'ldirish bilan birga uning ma'naviy olamini boyitib, dunyoqarashini yana kengaytiradi. Quyida asardan parchalar keltirish hamda ularni tahlil qilib borish davomida qissaning badiiy jihatdan g'oyat yuksak va xalqimizning etnik takomili uchun naqadar zarur asar ekanligini yana bir bora isbotlashga harakat qilamiz.

Asar Qoplombekning Oymomoga sovg'i qo'yish tasviri bilan boshlanadi. Ma'lumki, sovg'ilikning o'ziga xos shartlari bor: yangi hayotga ilk qadamlarini qo'yishga odimlayotgan ikki yoshning kattalari tomonidan qaror qabul qilinishi hamda tomonlarining bir-birlari ajdod-avlodlarini surishtirishi, qiz tomon "qattiqlanib" turib olsa, sovg'ilarning bor "so'z san'at" larini qo'llashi va shu bilan ularning roziligini olishi yuzimizga tabassum yugurtirish bilan birga odamlarga to'lgan odmi to'ylarimizni beixtiyor yodga soladi:

"Shunda sovg'ilar o'z san'atlarini qo'lladi. Biri qo'yib biri, qassob otasi borasida hamd-u

sanolar aytadi:

- Rahmatlik otasi ko'p yaxshi odam edi-da...
- Ko'p mard edi...
- Ko'p tanti edi...
- Esonboy otasiga tortmabdi...
- Noshukur bo'lmang. Esonboy otasiga quyib qo'yganday tortadi...
- Qani, qaniqayin?...
- Ana, anakayin. Musulmonchilik asta-asta-da...

Sovchilar gap oxirini ana shunday otadan qolmish ana shunday o'g'ilga olib kelib uladi. Eson qassob oxir-oqibat yon berdi."

Asarda unashtiruvdan keyingi bo'ladigan oshiq-ma'shuq o'yinlari, bordi-keldi rusumlar va ularning nomlari ham keng yoritilgan:

"Kuyov tarafdin **fotiha to'y** keldi.

Fotiha to'yida qo'y, zig'ir moy, guruch, mayiz... bo'ldi.

Kelin-kuyovlik davri boshlandi. Kuyov, kelin qarindosh-urug'lari oldidan yerga qarab o'tdi.

Ko'zlariga tik qaramadi. Davralarda yuzma-yuz o'tirmadi.

Oy o'tdi. Kelinnikiga ko'rpa-to'shak matolari bilan paxta keldi...

Bu, **to'qqiz deb** ataladi."

Asarda e'tiborni tortadigan yana bir tomoni shuki, sodda va tanti xalqimiz hayotida muhim rol o'ynaydigan go'yoki taqdirlarigada katta ta'sir etajagiga ishonadigan irim-sirimlarning qo'llanishi va ma'nolarining birma-bir berib ketilishi ham asarning badiiy saviyasini yanada oshirishga yordam bergan. Ayniqsa, bu kabi irimlar o'zbekning turli marosimlarida ko'plab uchraydi:

"Nikoh o'qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam **yelkasidan igna bilan ip o'tkazib-ip o'tkazib oldi**.

Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, degani bo'ldi.

Ip uchlarini tugmadi. Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi.

Hamisha bug'doyday serob bo'lsin, bola-chaqali bo'lsin deya, **kuyov boshi uzra bir hovuch bug'doy seydi...**"

Bu o'rinda nikoh vaqtida kuyov choponining yelkasidan igna bilan ip o'tkazilishi ikki yosh doimo birikib baxtli bo'lishsin, ajralib ketishmasin, degan ma'noda bo'lsa, kuyov boshi uzra bug'doy sepilishi, hosilga boy bo'lishi, ko'p bola chaqali bo'lishi garoviga aylantirilgan. Nega aynan igna ip? Chunki uning ishi aynan ikki mato chetini birlashtirish, bug'doy esa nonimiz, rizq-ro'zimiz.

Yoki yana bir o'rinda:

"— Ko'zingga qara, ko'zingga qara! — deyishdi.

Emishki, yo kuyov, yo kelin birinchi bo'lib birovi oyog'ini bossa, ana shu ro'zg'orda umr bo'yi o'ktam bo'ladi!

Kelin, kuyov oyog'idin ko'z uzmadi. Chapiga qarab yurdi. Chap oyog'i bilan kuyov oyog'ini bosmoqchi bo'ldi.

Kuyov epchillik bilan o'ng oyog'ini tortib oldi.

Kelin oyog'i ko'rpachani bosib oldi.

Kuyov chaqqonlik qilib, kelin oyog'ini bosdi."

Xalqimiz hayotida sanab o'tilayotgan bu kabi irim-sirimlar necha ming yillar oldin, ya'ni

islom dini O'rta Osiyoga kirib kelishidan ancha ilgari zardushtiylik, otashparastlik kabi diniy qarashlar natijasida shakllangan va ijtimoiy hayotimizda chuqur ildiz otgan. Masalan, zardushtiylik dinida, bilamizki, to'rt unsur muqaddas hisoblangan: havo, suv, tuproq va olov, ya'ni nur. Shundan kelib chiqqan holda turli totemistik qarashlar rivojlangan. Ularning biri olovning baxt keltirishiga ishonch! Chunki u yorug'lik, issiqlik ramzi. Shuning uchun ham o'sha paytdan boshlab, kelin-kuyovni gulxan atrofida aylantirish ularning baxtli bo'lishiga asos bo'lishiga ishonishgan. Bugungi kunda esa bu ishonch qadriyatga, odatga aylangan:

"Darvoza oldida gulxan yoqildi.

Kelin gulxandan uch marta aylandi.

*Oqlik uchun, hamisha oqko'ngil bo'lib yurishlari uchun **kelin-qudalar yuziga un sepildi.**"*

Adib Navro'z bayrami va uning ona tabiatimizga kirib kelishi alohida bir hayajon aralash nafis badiiy tasvirlar orqali yondashganki, asar yaratilganlik davridan kelib chiqadigan bo'lsak, muallif haqiqiy ma'noda o'z zamonasining qahramoniga aylangan.

Navro'z barcha muslim ahli uchun yangi kun, yangi hayotning boshlanishi demakdir. Tog'ay Murod tashxis san'atini qo'llagan holda tabiatni homilador ona, Navro'zni esa undan tug'ilgan go'dakka mengzaydi:

"Tabiatni to'lg'oq tutdi. To'lg'oqdan farzand tug'ildi.

Farzand oti Navro'z bo'ldi. Yurtimizga Navro'z keldi!...

Bu o'rinda Ogahiyning "Navro'z" radifli g'azalining ayrim misralari yodimizga tushadi, chunki unda ham xuddi shu kabi badiiy tasviriy ifodadan foydalanilgan:

Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,

Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Ma'nosi: dunyo kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan, navro'z unga doyalik qildi. Biz yashayotgan dunyo juda qadim bo'lganligi uchun kampirga o'xshatilyapti. Ko'klamning kelishi barchaga shodlik, quvonch keltiradi. Ana shu shodlik chaqalog'ini navro'z doyaligida dunyo kampiri tug'moqda. Shu baytning o'zida uchta tashxis bor: shodlik (tushuncha) tug'ilmoqda; dahr (borliq) zoli tug'moqda; navro'z (tabiat) doyalik qilmoqda.

Shuningdek, Navro'z kunlarining qanday qutlug' ekanini, odamlar hayotida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini, o'zlarini qanday tutish kerakligini asarda alohida qora harflar bilan berilishi bugungi kunda o'tmishning eskiliklari deb qaralayotgan amallar insonlar orasida samimiy mehr-oqibat uyg'otishi, iymonimizni yanada mustahkamlashi, vijdonimizni pok tutishimizdagi beqiyos o'rni bor bo'y-basti bilan aks ettirgan:

"Navro'zda yomon gapirib bo'lmaydi!

Navro'z haminqadar shod-xurramlikda o'tsa, haminqadar xush-xushvaqtlikda kechsa...

Yer-u falak-da haminqadar saxiy bo'ladi!

Osmon-u falakdan mo'l-ko'l yomg'ir yog'adi!

Yer-u zamin-da bo'liq-bo'liq hosil beradi!

El-yurt kelajak Navro'zgacha xush-xushvaqtlikda kun ko'radi, rohat-farog'atda kun ko'radi!"

Yozuvchi Navro'z haqida so'z yuritishni davom ettirar ekan, bu kunning ma'lum kunda kirib kelishi yilning qanday bo'lishidan belgi berishini elning yoshi ulug'lari tili bilan ifodalangani ham o'quvchiga estetik zavq beradi:

— *Inshoollo, Navro'z bu yil **seshanba kuni** kelar bo'libdi-da, aqllar?* — dedi Umarxon eshon.

— *Shunday, shunday, — ma'qulladi mulla Namoz.*

— Navro'z seshanbada kelar yil ochlik bo'lmaydi, oshlik bo'ladi. Ertagi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz-ne'matlar-da yaxshi bo'ladi. Aybi, taxchilroq bo'ladi.

— Yomoni, qon ko'p to'kiladi. El-yurt orasidan rahm-shafqat ko'tariladi.

— O'g'il otadan qaytadi, qiz onadanqaytadi, ayol eridan qaytadi.

— Podsholar taxtdan qula-qula bo'ladi.

— Yomonlik ko'payadi.

— Yog'in-chochindan ayting.

— Yog'in-chochin... qor kam yog'adi, aqllar. Yil oxirida sel ko'p keladi.

— O'zi, Navro'z qaysi kuni kelsa yil yaxshi bo'ladi, azizlar?

— **Yakshanba kuni** kelsa, ko'p binoyi bo'ladi. O'lim-etimlar oz bo'ladi. Fisq-fasod, yomonlik kam bo'ladi. Navro'z **dushanba kuni** kelsa-da yaxshi bo'ladi. Aybi, bug'doy tanqis bo'ladi.

— Navro'z **chorshanbada** kelsa, yil qimmatilik bo'ladi. Qorin-tomoq uchun qon to'kiladi.

— Fisq-fasod, g'alamislik ko'p bo'ladi.

— **Payshanbada** kelsa, dardmandlik ko'p bo'ladi.

— Shu yili oy bilan kun-da tutiladi, deng.

— Shunday, aqllar, shunday.

— **Jumada** kelsa, yomg'ir mo'l-ko'l bo'ladi. Aybi, qahraton sovuq bo'ladi.

— Navro'z **shanba kuni** kelsa... o'g'ri-muttahamlar yili bo'ladi, mushtumzo'rlar yili bo'ladi..."

Shuningdek, qissada Navro'z deganda ko'z oldimizga keladigan bayramona dasturxonining ham tasviri berib o'tiladi:

"Dasturxonlarda sumalak, halim, ko'k patir, ko'k somsa, ko'k oshi, deya atalmish dori-darmon taomlar bo'ldi..."

Muallif, ayniqsa, dasturxonimiz ko'rki, bayram ramzi bo'lgan Sumalak va uning ming yillik tarixiga alohida to'xtalib o'tishi bilan qadim tariximiz qanchalar boy bo'lganligini kitobxonga dalillamoqchidek bo'ladi.

Ta'kidlaganimizdek, bu asriy bayramlarimizdan obrazlarning xarakteri, ichki dunyosi, orzu-umidlari, o'ylarini ko'rsatib berishdan mahorat bilan foydalanilgan:

"Oymomo onamiz do'lanaday-do'lanaday kelmish yettita toshni yuvib-chaydi. Qozonda qaynamish sumalakka soldi."

Asarda sumalak pishirish jarayoni va unda bo'ladigan aytishuvlar, o'yinlarga ham e'tibor berilgan. Bunda tuni bo'yi mijja qoqmagan ayollar topishmoq aytishadi. Yozuvchi milliy ruhni nafaqat qadriyatlarimiz orqali, balki xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda ham yetkazib berishga harakat qilgan:

Sumalak tonglari otmadi!

Shunda, Xoldon momo aytdi:

— Kelinglar, topishmoq aytamiz, — dedi.

— Xo'p binoyi gap, — ma'qulladi ayollar.

— O'zimizning gurungma-gurung yuradigan topishmoqlardan aytamiz.

El og'zida yurmish topishmoqlardan aytish boshlandi.

Asar davomida Navro'z ayyomidan so'ng, ramazon oyi tasviri keladi. Bunda Oymomo va Qoplonbekning farzandsizligi birinchi planda bo'lsa, shu orqali milliylini ham istifoda etmoqda. Ayniqsa, Laylat ul-Qadr kechasi Oymomo uchun farzand so'rab duo qiladigan, yagona ilinj kechasi, go'yoki taqdir kechasi edi. Qoplonbek va xotini havo issiq bo'lishiga qaramay, ro'za

tutishadi, Qadr kechasini undan oldingi kunlarda ham kutaverdi, qo'llari duodan tushmaydi:

“Oftobda suv qaynayin-suv qaynayin, dedi.

Shunday kunda ramazon keldi.

El ro'za tutishini-da bilmadi, ro'za tutmasini-da bilmadi. Ro'za tutayin dedi, kun ko'z ochirmadi, kun nafas oldirmadi. Ro'za tutmayin dedi, mo'min-musulmon uchun ro'za qarz-da bo'ldi, farz-da bo'ldi.

Otamiz bilan onamiz o'ylab-da o'tirmadi. Kun oftob tugul, olov purkasada, ro'za tutarman bo'ldi.

Boisi, el-yurt oldida o'zlarini qarzдор bildi, el-yurt oldida o'zlarini aybdor bildi...

Qola bersa, otamiz bir umidi Laylat ul-Qadr bo'ldi...

Laylatul-Qadr kelajak kecha mo'min-musulmonlar nimaniki tilasalar, tilaklari bajo bo'ladi. Orzu-umidlari ushaladi.

Asar momomizning vafoti bilan tugallanadi. Qoplonbek va Oymomo “o'lsak, kim bizning orqamizdan “otamay”, “enamay” deb yig'laydi? Kim chiroq yoqadi, kim motam libosi kiyadi, kim aza tutadi?” kabi o'ylar surishar ekan, farzandsizlikdan kuyib ketishar edi. Umrining oxirigacha farzand kutib o'tishdi. Umidni bir lahza bo'lsa-da so'ndirishmadi. Biroq Oymomoning o'limi va butun qishloq ahlining motam ochishi, qora libos kiyishi, “enamay”, “momomay” deb yig'lashi Qoplonbekka taskin beradi. Befarzand bo'lishsada-da, dunyodan bekorga yashab o'tmaganligiga behad suyundi.

— Momomiz qazo qilganidan buyon **televizor, radio qo'ymaymiz.**

— Biz ham qo'ymaymiz.

— **Enam qora kiyib yuribdi.**

— Mening otam bir kuni yangiroq kiyimini kiyib shaharga bormoqchi bo'lib edi, enam urishdi, odammisiz o'zi, dedi. Otam farosatsizligidan o'zini koyib, yana qora kiydi.

— Biz ham qora kiyimlarimizni kiyib yuribmiz.

— **Enam taqinchoqlariniyam sandiqqa solib qo'ydi.**

— **Ukalarim oqshomlari ashula aytib o'ynardi, enam urishdi.** Azalimiz, bovang eshitib qolsa nima degan odam bo'lamiz, dedi.

— Endi momomizning qirqi o'tguncha shunday bo'ladi.

— Bovamiz buyoqlarga kelib yurishimizniyam bilarmikinlar? — dedi ma'shuq.

— Bilmasalar kerak, — dedi oshiq.

— Momomizning vafoti kuni sen ham yig'ladingmi?

— Bo'lmasam-chi, uyni aylanib, **momomlab yig'ladim.**

— Men **enamlab yig'ladim.**

Parchada motam va u bilan bog'liq bo'lgan unsurlar oshiq-ma'shuq tilidan berilgan. Bu ham sovuq tadbir bo'lsa-da bizning o'zligimizdan dalolat beruvchi urf-odatdir.

Asar yozilishi haqida yozuvchining o'zi shunday deydi: “Toshkentda yashayotganimdan buyon ilk marotaba o'zim haqimda o'yladim: “Men o'zi Toshkentda nima qilib yuribman? Surxonda tayyor uy, bog'larimni tashlab, ota-onam, urug'-aymoqlarimni tashlab, nega Toshkentda daydib yuribman? Yozuvchi bo'lmoqchimdim? Qani, yozuvchi bo'lganim? Besholtita hikoyami? Bu hikoyalar yozuvchi bo'ldi, degan gap emas. Bu hikoyalar shunchaki mashqlar. Yo'q, kim ekanligimni, kim bo'lmoqchi ekanligimni bir ko'rsatib qo'yishim kerak. Men muzeyni tomosha qilmishday “Oydinda yurgan odamlar”ni tomosha qildim. Men Rembrandt kartinalarini tomosha qilmishday “Oydinda yurgan odamlar”ni tomosha qildim. “Hayot bor

ekan, “Oydinda yurgan odamlar” ham bo’ladi, – deya yashnadim. – O’zbek xalqi hayot ekan, “Oydinda yurgan odamlar” ham hayotdir.” Darhaqiqat, adib aytmishidek, qissa yashar ekan – xalqimiz ham umrboqiy, chunki asar o’zbeklarga qo’yilgan haykal, ularga atalgan madhiya, uzoq o’tmishi, buguni, kelajagidir.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek adabiyotida xalqimizni kuylagan, milliyligi haqida to’lib-toshib bitilgan asarlar juda ham ko’p. Ammo “Oydinda yurgan odamlar” qissasi alohida e’tibor va e’tirofga sazovordir. Asarni o’qish davomida inson har tomonlama kamol topadi, tarbiyalanadi. Avvalo xalqparvar, oilaparvar, iymonli, vijdonli, sadoqatli, mehnatsevar shaxs bo’lib voyaga yetadi. Siz bilgan o’zbek ko’z o’ngingizda zabardast, buyuk millat sifatida qayta gavdalanadi. Qalbingiz surur, faxr hissiga to’ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning kitobxonlik to’grisidagi qarorlari, shuninhdek, ilgari surilgan besh teshabbus ham ayni maqsadni ko’zlaganki, biz boy va qadim tarixga egamiz. Dunyo tan olgan allomalar avlodlarimiz, ularga mos bo’lish uchun, kuchli salohiyatli bo’lib o’sib-unishimiz uchun bu kabi chuqur ma’noli asarlarning hayotimizdagi o’rni beqiyosdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Normatov. Benazir badiiy obida // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent: 2018, 1-son.
2. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2008.
3. P.Qodirov. Tog’ay Murodning tug’ma iste’dodi. Maqola. 1985. www.saviya.uz.
4. Sh.Sa’dullayeva. Tog’ay Murod asarlarida ma’naviy-axloqiy muammolar talqini. Magistrlik dissertatsiyasi. Nukus. – 2014. B. 89.